

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2024 Vol. 4

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2024 Vol. 4

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosari: Nodir Jo'raqo'ziyev

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabethta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Ushenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nodir Jurakuziev

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Dilafruz Satimova

O'zbek adabiyotida substandart leksik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi va ularning ingliz tiliga tarjimasida.....6

Umida Mahmudova

Raqamli texnologiyalar diskursi tarjimasida sun'iy intellekt ChatGPT va Google Translate tarjimon dasturlarining farqi.....23

Zilola Tillabayeva

Samarqand viloyati qarluq shevalariga doir leksemalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.....37

Adabiyotshunoslik

Orzigul Hamroyeva

Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" darsligining tarkibiy tuzilishi.....49

Alimuhtor Muhtorov

Nizomiy Ganjaviy siymosining milliy o'zlikni anglashdagi roli.....63

Vəzufə Xudiyeva

Azərbaycanda mövcud bibliografik ehtiyatlar sisteminin inkişafı.....76

Kishin Xajiboyev

"Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romani syujetida inson va tabiat konsepsiyasi ifodasi.....87

Tarix. Manbashunoslik

Kemal Yavuz Ataman

Ikki yetakchi sahoba: Qusam bin Abbos va Abu Ayyub al-Ansoriy va ikki muhim shahar: Samarqand va Istanbul.....101

Sotsiologiya. Psixologiya

Komil Kalanov

Diniy ramziy belgilar tizimining tarixiy va ijtimoiy-madaniy tavsifi.....120

CONTENT

Linguistics

Dilafruz Satimova

Linguoculturological Study of Substandard Lexical units in
Uzbek Literature and their Translation into English.....6

Umida Mahmudova

The Difference Between Artificial Intelligence ChatGPT and Google
Translate in the Discourse of Digital Technologies Translation.....23

Zilola Tillabaeva

Types of Lexemes in the Karluk Dialects of Samarkand Region
According to their form and meaning.....37

Literature

Orzigul Hamroeva

The Structure of Abdurahmon Sa'di's Textbook "Practical and
Theoretical Literature Lessons"49

Alimukhtor Mukhtarov

The Role of Nizami Ganjavi's Image in Understanding National
Identity.....63

Vazufa Khudieva

Development of the Existing Bibliographic Resources System in
Azerbaijan.....76

Kishin Khajiboev

The Expression of the Concept of man and nature in the plot of the
novel "The shore that lost its river"87

History. Source studies

Kemal Yavuz Ataman

Two Pioneer Companions, Two Important Cities in the Conquest
Qutham ibn Abbas & Abu Ayyub al-Ansari, Samarkand & Istanbul.....101

Sociology. Psychology

Komil Kalanov

A Historical and Socio-Cultural Description of the System of
Religious Symbols.....120

LINGVISTIKA
LINGUISTICS

O'zbek adabiyotida substandart leksik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi va ularning ingliz tiliga tarjimasini

Dilafruz Satimova¹

Abstrakt

Mazkur maqolada o'zbek badiiy adabiyotida substandart leksikaning lisoniy va nutqiy xususiyatlari tadqiq qilinib, ularning lingvokulturologik, sotsiologik jihatlari hamda translatologik muammolari yoritiladi. Bu borada G'arb va Sharq tilshunoslarining mazkur masalaga oid nazariy va ilmiy yondashuvlari tahlilga tortiladi. Tadqiqot ishimizda qiyosiy-chog'ishtirma metod (ingliz va o'zbek tillari kesimida), tipologik usul (xarakterologik xususiyatlariga ko'ra), tasviriy metodi (jadval orqali), distributiv tahlil (muayyan substandart birliklarining badiiy diskursda ifodalanishi yordamida), statistik tahlil metod (leksik birliklarning miqdoriy ko'rsatkichlari hisobida), translatologik (tarjima usullari) yondashuv metodlaridan foydalanilgan. Ishimizning natijasi asosida, badiiy diskursda substandart leksik birliklarning qo'llanilishi va ularning qardosh bo'lmagan tillarga tarjimasida lingvomadaniy tushunchalarning aks etishi G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasidagi misollar yordamida aniq dalillandi. Kuzatishlar natijasida quyidagilarga erishdik: 1) badiiy diskursda substandart leksik birliklarning mavjudligi izchil tahlil qilinib, ularning muloqot jarayonidagi ahamiyati ochib berildi; 2) badiiy matnda substandartlarning o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimasida so'zma-so'z tarjima usuli har doim ham tarjimon uchun maqbul bo'lmasligi aniqlandi, chunki bu usul mazmuni to'g'ri yetkazishda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin; 3) substandart birliklarni tarjima qilishda analog va adekvat translatologik usullari ko'proq muvaffaqiyatli bo'lib, ularning madaniy va lisoniy kontekstga mos ravishda qo'llanilishi samarali ekanligi isbotlandi.

Kalit so'zlar: *badiiy diskurs, substandart, translatologik, ekvivalent, analog, adekvativ, so'zma-so'z tarjima, talqin, leksik birlik,*

¹ Satimova Dilafruz Numonjonovna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Andijon davlat universiteti.

E-pochta: dilmus09@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-4640-601X

Iqtibos uchun: Satimova, D. N. 2024. "O'zbek adabiyotida substandart leksik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi va ularning ingliz tiliga tarjimasini". *O'zbekiston: til va madaniyat* 4: 6 – 22.

okkazionalizm.

Kirish

Zamonaviy adabiyotshunoslikda tahlil va talqin tushunchalari keng qamrovli tarzda qo'llanilib, ular badiiy asarni anglash jarayonida bir-biriga o'zaro bog'liq elementlar hisoblanadi. Badiiy asarni anglash va uning mazmunini tushunish jarayonida tahlil va talqin amaliyotlari muntazam ishtirok etadi. "Tahlil" tushunchasi ko'proq ilmiy adabiyotlarda "analiz" atamasi bilan sinonim sifatida qo'llaniladi. Analiz esa, ma'lumki, butunni yaxlit anglash uchun uni tarkibiy qismlarga ajratishni, bu qismlarning umumiy tuzilmadagi ahamiyatini, ularning bir-biri bilan aloqasi va butunlikka bo'lgan hissasini o'rganishni nazarda tutadi.

Roland Bartning fikriga ko'ra, badiiy matn o'quvchi uchun shunchaki "tayyor" mazmunni qabul qilish vositasi emas, balki u bilan faol muloqotga kirishish, yashirin ma'no qatlamlarini ochish imkoniyatini yaratadigan ijodiy maydon hamdir [Barthes 1977, 83]. Shu nuqtayi nazardan, tahlil jarayoni o'quvchiga asarning tashqi shakli va ichki mazmuni o'rtasidagi aloqalarni ochib berishga, asar ichki strukturasi va semantik ma'nolarini chuqurroq tushunishga imkon yaratadi. Ba'zi tadqiqotchilar badiiy asarni qismlarga ajratish jarayonini uning jonli tabiatidan ajratib, uni "jonsiz tanaga aylantirish" deb baholaydilar hamda tahlilga qarshi chiqadilar. Mazkur qarash, aslini olganda, ilmiy asoslanmagan, sababi, adabiyotshunoslikdagi tahlil ham bir o'qish jarayonidir, faqat unda tadqiqotchi badiiy asarni yanada teran, yanada chuqurroq tahlil qilish maqsadida uni tarkibiy qismlarga ajratgan holda hazm qiladi. Tadqiqotchi o'qish jarayonida badiiy asarning go'zallik hodisasi sifatida mavjudligini, uning o'quvchi ongi va hissiyotlariga ta'sir qiluvchi jihatlarini hamda mazkur asarning qanday ma'noda tushunilishiga asos bo'layotgan omillarini tahlil qiladi.

Jahon tilshunosligida matnni qismlarga ajratish, ya'ni analiz tushunchasi orqali ma'no qatlamlarini o'rganish juda muhimdir. Masalan, Jon V. Felanning fikriga ko'ra, adabiy asarni qismlarga ajratib o'rganish uchun chuqur ma'nolarini va yashirin qirralarini kashf qilishga yordam beradi. Buning natijasida o'quvchi nafaqat asarning tashqi shakli, balki ichki mazmunini ham yaxlit ko'rinishda tushunishga erishadi [Phelan 2022, 78]. Darhaqiqat, ushbu jihatdan olib qaralganda, analiz jarayoni badiiy asarni yaxlit anglash hamda o'quvchi uchun asardan ma'naviy va estetik zavq olish imkonini kengaytiradi.

D. Quronovning ta'kidlashicha, "talqin" atamasi "interpretatsiya" istilohining sinonimi sifatida qabul qilinadi. Talqin, avvalo, badiiy asarni sharhlash, uning mazmun-mohiyatini va unda ifodalangan badiiy konsepsiyani anglash hamda idrok etish jarayonidir. Keng ma'noda "talqin" atamasi boshqalar tomonidan ifodalangan fikr yoxud yozilgan asarning (ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy va h.k) mazmunini anglash, uni ma'lum yaxlit tarzda tushunish va tushuntirish (adabiyotshunosning maqsadi tushunishning o'zigina emas, tushuntirish hamdir) ma'nolarini anglatadi [Quronov 2004, 234]. Adabiyotshunosning vazifasi faqatgina tushunish emas, balki uni boshqalarga tushuntirish hamdir. Shu jihatdan, mumtoz adabiyotshunoslikda va umuman, o'tmishdagi ilmiy yondashuvlarda "talqin" atamasiga ko'pincha "sharh" va "tafsir" kabi istilohlar bilan izohlangan. Ushbu atamalarning barchasi asarda implitsit (yashirinib yotgan) ma'no qatlamlarini ochishga xizmat qiladi. Tahlilchilar fikricha, badiiy asardagi "obrazlar tili"ni " mantiq tili"ga o'girib, uning mazmunini mantiqiy asosda anglash va ifoda etish talqin jarayonining asosiy vazifasidir.

Darhaqiqat, R. Bart ta'kidlaganidek, badiiy asarlarni talqin qilish o'quvchiga asarda mavjud bo'lgan implitsit (yashiringan) sema qatlamlarini ochish imkonini beribgina qolmay, uni o'qish jarayonida ular bilan ijodiy muloqotda bo'lish pozitsiyasini yaratadi [Barthes 1970, 190]. Anglashiladiki, talqin jarayoni nafaqat asarning mazmunini tushunishdan iborat, balki uning ijtimoiy, madaniy va falsafiy kontekstlardagi ahamiyatini ham atroflicha anglashga qaratilgan.

Bugungi kunda substandart leksikani badiiy adabiyotda tahlil qilish masalasi nafaqat lingvistik, balki sotsiokulturologik va translatoologik jihatlaridan ahamiyatli bo'lib, asarlardagi xalq tilidan olingan jonli, ekspressiv va emotsional so'zlar – milliy madaniy kontekstda o'zining rang-barang qirralari bilan ajralib turadi. Shu bois mazkur mavzuni tadqiq etish, substandard leksikaning tarjima jarayonidagi muammolarini aniqlash hamda ushbu jarayonning samaradorligini oshirish tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

Tushuniladiki, o'zbek va g'arb adabiyotshunosligidagi ushbu yondashuvlar matnni lingvistik, sotsiologik va madaniy jihatlardan o'rganish muhimligini ko'rsatadi. Masalan, Suzan Bassnet tarjimada madaniy va lingvistik jihatlarni hisobga olish zarurligini ta'kidlab, tarjimonlar substandart leksikani tarjima qilishda badiiy uslub

va milliy kontekstni saqlashga intilishlari lozimligini ta'kidlaydi [Bassnett 2013, 45]. Bu, ayniqsa, substandart leksika orqali yaratilgan o'ziga xos leksik birliklarni tarjimada to'g'ri ifodalashda dolzarb hisoblanadi.

Asosiy qism

Badiiy asar qahramonlarining muloqotida reallikka xos bo'lgan sodda gaplar, tushunilishi oson bo'lgan leksik birliklar, qisqa va lo'nda fikrni ifodalashga qaratilgan, rasmiy uslubdan yiroqlashgan nutq shakllari qo'llaniladi. G'alizlikka olib keluvchi murakkab qo'shma gaplardan voz kechilib, kundalik hayotda keng qo'llaniladigan oddiy leksikani, jumladan, sodda so'zlashuv leksikasi, sleng, jargon, argo, vulgarizm, varvarizm, o'zlashmalar, dialektal leksikaga murojaat etadi. Shuningdek, personajlar nutqida sezilarli darajada emotsional-ekspressivlikni namoyon qilib, muloqotni jonli hamda ifoda yorqinligini kuchaytirish maqsadida qahramonlar o'zaro suhbatida emotsional-baholovchi ottenkani qo'shib, erkin va hazilomuz kayfiyatni ulashgan holda, ba'zan esa, yosh kategoriyasidan kelib chiqib o'zida zamonaviylik va yangilikni ifoda etishga qaratiladi, ularning nutqini mazmunan boyitadi va o'ziga xosligini yaqqolroq ifoda etadi. Misol uchun, G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida qo'llanilgan *lippa* leksikasi aslida qadimda ishtonning ishtonbog' o'tkazish uchun qaytarib tikilgan joyi [Ўзбек тилининг изоҳли луғати 2006-2008, 347] bo'lsa, keyinchalik esa ushbu leksema qatnashgan jummalarni shaxslarga nisbatan pul topish va to'plashga berilib ketganda qo'llaniluvchi *ahli lippa* iborasi sifatida og'zaki nutqda uchratishimiz mumkin: *Men iljayib turaverdim. U ovutib turgan ukamni qo'ydi-da, qo'g'irchoqlarining oldiga yugurib ketdi. Men ham "lip" etib hujraga kirib, xo'qachadan yog' o'yib oldim. Yog'ni bir qog'ozga turmuchlab, lippamga qistirdim. U yerdan chiqib o'tinxonaga kirdim. Kulrang tovug'im piyozdan qilingan moyak ustida tug'ib o'tirar edi...* [G'afur G'ulom 2018, 11]. *Sizga o'xshash ahli lippalarga tushuntirish uchun uch kunlab doklad qilish kerak ekan-da!* ["Mushtum" jurnali].

Keltirilgan misollardan sezish mumkinki, ayrim leksik birliklar ma'no jihatdan kengayib, xususan, narsani insonga nisbatan ko'chishi (kiyim-kechak bilan bog'liq iborani keyinchalik o'sha davr kishilarini pul topishga haddan ziyod berilib ketgan holatlari uchun) bilan nominativ aspektda o'sha zamonning substandart sleng leksikasini rivojlanishiga olib keladi. *Lippa* semasi ko'chma ma'noda shaxsning ish-harakati hamda uning fe'l-

atvorini tasvirlashga nisbatan *ahli lippa* leksemasi orqali metaforik o'xshashlik asosida ikki narsaning bir-biriga ma'no ko'chishi yuzaga kelgan.

Matnda qo'llanilgan bir qator norasmiy so'zlar (*lip etib, qaqalab, turmushlab, lippamga qistirdim va h.k*) oddiy va samimiy muhitni yaratishga xizmat qilib, kundalik hayotga xos odatlarni, sodda uslubni, qahramonning o'ziga xos xarakterini va vaziyatning haqiqiylikni his qilishga undaydi. Bundan tashqari, muallif ushbu oddiy so'zlashuv uslubiga xos leksikalarni qo'llashi orqali asar qahramonining tabiatini, uning harakatlaridagi hazil va samimiyatni aks ettirish bilan birga asarda bo'layotgan voqealarni jonliroq obrazda tasvirlaydi. Bu esa o'z-o'zidan asarga nisbatan ishonchni, emotsional-ekspressiv ohangni kuchaytiradi, shuningdek, o'quvchi peyzajni vizuallashtirib, voqealar rivojini his qila olishi, o'sha davrga xayolan tushib qolish holatlarini o'zida mujassam ettira oladi. Shunday qilib, o'zimizning tahlillarimiz asosida G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida 150 ga yaqin substandart leksika ishtirok etganligini, ulardan 68 tasi dialektal leksika, 17 tasi o'sha davrga xos slenglar, 6 tasi jargonlar, 9 tasi argo, 29 dan ortig'i o'zlashmalar (rus, tojik va qozoq tillaridan) hamda 18 tasi vulgar so'zlar ekanligini aniqladik:

G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida qo'llanilgan substandartlarning miqdoriy ko'rsatkichi bilan tanishishimiz mumkin:

№	Substandartlar	O'zbek tilidagi miqdoriy ko'rsatkichi
1	Dialektal leksika	68
2	Slenglar	17
3	Jargonlar	6
4	Argolar	9
5	O'zlashmalar	29
6	Vulgar so'zlar	18
7	Umumiy ko'rsatkich	147

Deylik, yana bir misolda "bit bozor" birikmasi muallif zamoniga xos o'g'zaki nutq substandart leksikasi sifatidagi ibora bo'lib, asarda individual reallashgan ma'no nuqtayi nazaridan mohirona qo'llanilgan. G'afur G'ulom tomonidan ushbu leksemani ijodiy, okkazional tarzda qo'llanilganini payqaymiz: *Bu bozorlar ichida, menimcha, ta'rif-tavsifi yetti iqlimga ketgani "bit bozor" deb nomlangan rasta bo'lsa kerak. Bu yerda joningizga orom beradigan hamma narsa topiladi: saldoti shim deysizmi, poyma-poy sag'ri*

kavush deysizmi, biror yetti yilgina kiyilgan, asli matoi nima ekanligi ma'lum bo'lmagan guppi deysizmi, Mallaxon zamonidan qolgan mursak deysizmi, chevar qizlar uchun rango-rang quroqlar deysizmi, ot bo'ktargisi, yolpo'sh, gulchin bilan tagcharm qo'yilsa hali kiyishga bo'ladigan nimdoshgina saxtiyon mahsi deysizmi, paytavabop mollarning va lungibop matolarning son-sanog'i yo'q. ... [G'afur G'ulom 2018, 18].

To my mind, the most famous market among them was "the louse market". There you can find everything: soldier trousers, leather-shoes, different colored clothes by tailor girls and many other things [To'xtasinov, Yo'ldoshev 2017, 14].

"Shum bola" qissasining ingliz tiliga tarjimasida uchraydigan translatsologik muammolariga e'tiborimizni qaratsak, substandart leksikaning tarjima jarayonida tarjimon yondashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, substandart leksika odatda jonli va o'ziga xos madaniy kontekstga bog'liq bo'lgan so'zlar bo'lib, ularni boshqa tilga interpretatsiya qilishda o'quvchiga ana shu o'ziga xosliklarni, lug'atlardan ajralib turuvchi og'zaki nutqqa xos semantik jihatlarni yetkazish muhim masala hisoblanadi. "Tarjima – deb yozadi Y.I.Retsker, – mustahkam lingvistik asoslarsiz amalga oshirilishi mumkin emas. Bu asos til hodisalarini qiyosiy o'rganish va ularning ma'lum bir ekvivalentlarini to'g'ri topishga qaratilgan. Ushbu ekvivalentlar tilning leksik, frazeologik, grammatik hamda stilistik qatlamlarida mavjud bo'lib, ular tarjima nazariyasining lingvistik asoslari bo'lishi kerak" [Рецкер 1950, 158]. Y.I. Retsker mazkur g'oyalarga asoslanib, o'z tarjima yondashuvini taklif qiladi va tarjimaning uchta asosiy usuliga tayanadi: 1. Ekvivalentlar tanlash orqali; 2. Analoglar orqali; 3. Adekvat almashuv orqali [Умархўжаев 2010, 44].

1. Ekvivalent tanlash orqali [muqobil variantlar].

Tarjimon maqsadi, avvalo, asliyatda qo'llangan substandart leksikaning mazmunini to'g'ri aks ettirishdir. Ekvivalentlarni tanlashda, u boshqa tilning lug'atida mavjud bo'lgan yoki aniq mantiqiy bog'lanishga ega so'zlar va iboralarni tanlaydi. Mana shu jarayonda tarjimon substandart so'zning kommunikativ-pragmatik funksiyalarni saqlagan holda, boshqa tilga iloji boricha ekvivalent bo'lgan so'z yoki iboralarga murojaat qiladi. Masalan, yuqoridagi mantda "bit bozor" iborasi "flea market" deb tarjima qilinganida, bu bozor turining ikki til madaniyatidagi o'xshashliklariga tayaniladi. Sababi, "flea market" ingliz tilida quyidagi ma'no munosabatiga ega:

- a) an outdoor market which sells cheap used goods and

sometimes also very old furniture;

b) an open-air market selling cheap and often second-hand goods. BrE;

c) a bazaar, usually outdoors, consisting of a number of individual stalls selling old or used articles, curios, and antiques, cut-rate merchandise, etc. AmE [Collins Cobuild English Language Dictionary 1987]. *There's a flea market every Saturday in the school parking lot.*

Ko'rinadiki, ingliz milliy madaniyatida ham haftaning bir kunida ochiq havoda o'tkaziladigan savdo rastasi mavjud bo'lib, unda arzon narxlarda, ko'pincha ikkinchi qo'l mahsulotlari sotiladi. Bu savdo maydonchasi "flea market" deb nomlanadi. Shu tarzda, ekvivalent tanlash usuli, asosan, ma'noni iloji boricha to'g'ri yetkazishga xizmat qiladi.

2. Analoglar orqali [o'xshah, variantli muqobillar].

Har doim boshqa tilda substandart so'zga to'g'ri keladigan ekvivalent topilishi oson emas, ayniqsa, agar u ma'lum bir madaniy kontekstga bog'liq bo'lsa, tushunilishi murakkablashadi. Shunday holatlarda tarjimon analoglarni tanlaydi, ya'ni boshqa tildagi o'xshash, lekin ma'lum bir kontekstga mos tushadigan so'z va iboralarga murojaat qiladi. Analoglar tanlash jarayonida tarjimon so'zning stilistik va semantik jihatlarini saqlagan holda, milliy-madaniy o'xshashliklarga, shuningdek, kontekstga monand ifoda ottenkalariga e'tiborini qaratadi. Analoglar orqali tarjima qilish usuli, asosan, substandart birliklar tajribasida muayyan qiyinchiliklar tug'diradi, sababi, og'zaki nutq muloqoti adabiy leksikadan sezilarli darajada farq qilib, ko'pincha erkin so'zlashuv uslubiga xos bo'lgan norasmiy, o'sha til egalariga ma'lum va tushunarli bo'lgan leksik elementlardan foydalaniladi. Bunday holatda tarjimonning yuksak darajadagi mahorati, sinchkovligi hamda madaniyatlararo tavofutni hisobga olish qobiliyati nihoyatda muhimdir. Masalan, "bit-bozor"ni ingliz tilida ishlatiladigan "second-hand market" deb almashtirish ham mumkin, biroq boshqa tomondan qaralsa, bu ibora *not new; having been used in the past by someone else* [Cambridge Advanced Learner's Dictionary 2008] // *yangi emas, ilgari kimdir tomonidan ishlatilgan, ikkinchi qo'l* ma'no mazmunini ifodalaydi. Bunda barcha mahsulotlarga nisbatan ushbu terminini qo'llash biroz noo'rin, bizningcha. Masalan, *avtomobil, telefon, velosiped* kabi texnik vositalar yoki uy-jihozlariga nisbatan ushbu leksikani qo'llash joiz hisoblanadi, ammo kiyim-kechak, oziq-ovqat kabi mahsulotlarga ishlatish milliy-madaniy xususiyatlarga ko'ra to'g'ri ko'proq mos

keladigan analog sifatida qo'llanilib, uni "narx-navosi past, oddiy bozor" sifatida Britaniya sodda so'zlashuv nutqida keng yuritiladi.

3. Adekvativ (mos) almashtirish orqali. Tarjima jarayonida uchinchi yondashuv adekvat almashuv usuli bo'lib, tarjimon original leksikaning ma'no va uslubini imkon qadar saqlab, asarning umumiy g'oyasi, uslubi va konsepsiyasidan kelib chiqqan holda, mos va madaniy nuqtayi nazardan maqbul variantni tanlaydi. Mazkur usulda tarjimon asl matndagi stilistik tus, emotsional-ekspressivlik, subyektiv-baholovchi ma'nolarni boshqa tilga aniq va to'g'ri ravishda o'tkazishga harakat qiladi. Ushbu bozorni oddiy xalq orasida qanday talqin qilishini va bu iborani tildagi obrazlilikni yetkazish uchun yuqorida ta'kidlangan, "junk market" yoki "thrift market" kabi ifodalarni tanlashi mumkin. Masalan, G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida qo'llanilgan "bit bozor" iborasi o'zbek madaniyatida turli xil arzon, xalq o'zi yetishtirgan meva-sabzavotlar, o'zlari qo'l mehnati yordamida yaratgan buyumlar, kiyim-kechaklar, ayrim hollarda eskirgan mahsulotlar sotiladigan joy sifatida xalq orasida mashhur katta ochiq rastalardan tashkil topgan bozor, lekin buni to'g'ridan-to'g'ri boshqa madaniyatga tushuntirish uchun tarjimon lingvomadaniy kontekstni ham hisobga olishi lozim. Shu jihatdan kelib chiqib, bizningcha, adekvat yondashuv tarjimonning ijodiy va strategik qarorlar qabul qilishini talab qiladi.

Bundan tashqari, tarjima jarayonida bir qator muhim usullar ham mavjud bo'lib, ularga adaptatsiyali (soddalashtirish, yengillashtirish, muvofiqlashtirish), antonimik (onomaniya – zid, ammo monand birikmalar yordamida), transliteratsiya (grafik obrazini tizimlashtirish), transkripsiya (so'zlarni tarjima tili tovushlari vositasida), transpozitsiya (so'zlarni grammatik va sintaktik tartibini o'zgartirish), modullashtirish (ma'nosi saqlangan holda iboralarni berish), kalkalash (tarkibiy qismlarini alohida ajratgan holda), erkin tarjima (muallifning emas tarjimonning ijodiy uslubi ustunligi), ijodiy tarjima (kitobxonga ma'qul bo'ladigan so'z san'ati, ijodiy mazmuni, intonatsiyasi, manerasi), so'zma-so'z tarjima (to'g'ridan to'g'ri hech qanday o'zgarishlarsiz), hijjaviy tarjima (shakliy o'xshashlikka asoslangan mexanik tarjima) va h.k [Peçkep 2007, 135]. Har bir tarjima negizida matn hamda kontekst mutanosibligi yotadi, ularning turli jihatlariga mos ravishda tarjimon maqsadiga muvofiq keladigan usul tanlanadi va qo'llanadi.

Yuqorida keltirilgan G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida ishlatilgan *bit-bozor* leksik birikmasi ingliz tiliga tarjima

qilishda **soʻzma-soʻz tarjima** usulidan foydalanilganligini kuzatishimiz mumkin. Bunda *bit-bozor* iborasi *the louse market* sifatida oʻgʻirilgan. **Soʻzma-soʻz tarjima** usulining mohiyati, tarjimada har bir soʻzning hech narsani almashtirmasdan, toʻgʻridan toʻgʻri ekvivalentini tanlashga asoslanadi, lekin bu jarayonda tilning stilistik, madaniy va kontekstual jihatlari koʻpincha inobatga olinmaydi. Sababi, mazkur usulda tarjimon leksik birliklarni qayta guruhlamasdan yoki moslashtirmasdan, oʻsha leksemani boshqa tildagi tarjimasiga, yaʼni ekvivalentiga eʼtibor qaratadi va oʻgiradi. *Bir-bozor* leksik birikmasida oʻzbek tilida *bit* – qon soʻruvchi hasharotlar turkumiga kiruvchi parazit sifatida mazmunini anglatib, ingliz tilida *louse* deb tarjima qilingan, yaʼni – *a very small insect that lives on the bodies or in the hair of people and animals* [Cambridge Advanced Learner’s Dictionary 2008] maʼnosini bildiradi. Biroq, ushbu leksemani soʻzma-soʻz tarjima qilish natijasida asl maʼno va madaniy konnotatsiyalarni toʻliq saqlab qolish mushkul boʻladi. Zotan, oʻzbek tilida *bit-bozor* iborasi xalq ogʻzaki nutqida oʻziga xos substandart sifatida ishlatilib, u haqiqiy bozorning xilma-xilligi va arzon mahsulotlarni tasvirlash uchun foydalaniladi. Shu sababli *louse market* kabi tarjima mazmun jihatdan toʻgʻri boʻlsa-da, stilistik jihatdan asar oʻquvchisiga toʻgʻri hamda ijobiy taassurot yetkazmasligi mumkin.

Eʼtiborimizni yana bir kollokvial leksikaga qaratsak, yaʼni *puk bermoq* leksikasi oʻzining koʻp qatlamli lugʻaviy maʼnosi bilan ajralib turadi. Asosan, bu soʻz ot va sifat soʻz turkumlarida ifodalanib, uning maʼnosi “poʻk” shaklida “ichki boʻshliq yoki chirigan joy” sifatida ifodalanadi. Ushbu terminning denotativ maʼnosi “daraxtning ichi chirigan yoki boʻsh, maʼnosiz kabi holatlarda ishlatiladi. Shuningdek, koʻchma maʼnoda “xom semiz” yoki “sayoz, boʻsh” kabi boshqa 8 xil semantik variantlari ham mavjud.

Lekin ogʻzaki soʻzlashuvda *puk bermoq* birikmasi oʻziga xos ifoda vositasi sifatida ikkita asosiy konnotativ semantikada uchraydi. Birinchi holatda, *puk bermoq* kishi ichki qoʻrquv yoki noaniqlik hissi bilan valdiramoq, yaʼni “sir boy bermoq” maʼnosida keladi. Ushbu maʼnoda *puk bermoq* kishining ichki holatini, ehtiyotkorlik va ikkilanish tuygʻularini ifodalaydi: *Nima balo boʻldi, ering ikkovimizning ishimizni sezib qolganmi deymanov yoki puk berib qoʻydingmi?...* [Gʻafur Gʻulom 2018, 48].

Ikkinchi holatda esa *puk uchmoq* birikmasi yolgʻonga ishonib qolish yoki aldanish holatlarini anglatadi. Bunda frazema aldanish yoki soddalarcha ishonish maʼnosida keladi va laqqillash

holatini ifodalaydi: *Omon ham mening gapim-ga "po'k" uchgan bo'lsa kerak, ikki gapning birida "haha, haha", deb qo'yar edi, — dedi Shum bola* [G'afur G'ulom 2018, 18].

Misollardan ma'lumki, muallif G'afur G'ulom kollokvial ifodalarning badiiy matndagi qo'llanishida o'ziga xos so'z ustaligi va ijodiy mahoratini namoyish etgan. Lingvistik va stilistik jihatdan, *puk bermoq* leksikasi jonli xalq nutqining bir qismi bo'lib, asarga emotsional rang-baranglik qo'shadi va o'quvchi bilan yanada yaqin aloqada bo'lish imkonini yaratadi.

Mazkur qissaning ingliz tilidagi tarjimasida, *puk bermoq* birikmasining semantik boyligi biroz soddalashtirilgan. Asarning tarjimasida kontekstda ushbu frazemaning asosiy ma'nosini yo'qotib, faqatgina *"to feel attitude"* yoki *"to believe"* [To'xtasinov va Yo'ldoshev tarjimasini 2017] kabi oddiy ifodalar bilan cheklangan. Bu tarjima, aslida, muqobil (ekvivalent), o'xshash (analog) yoki adekvat tarzda translyatsiya qilinmaganligini anglatadi. Shu sababli, bu tarjimada tarjimonlik jarayonida konnotativ qatlamlarning yo'qolganligi seziladi. Bizningcha, bunday muammoli tarjimalar badiiy matndagi hissiy va madaniy boylik-ning o'quvchiga yetkazilishini cheklab qo'yadi.

Berilgan misollarni hisobga olib, *puk bermoq* iborasining tarjima variantlarini yanada mazmunli ifoda qilish uchun quyidagi variantlarni taklif qilish mumkin:

1. ***To lose one's nerve*** // qo'rquvga tushmoq – bu tarjima *puk bermoq* iborasining his-tuyg'ularni ifodalovchi tomonini, ya'ni kutilmagan vaziyatda ikkilanib qolishni ifodalaydi.

2. ***To babble nervously*** // og'izdan chiqib ketmoq – ushbu ibora *"puk bermoq - valdiramoq"* (rambling out of nervousness)ning ehtiyotsizlik yoki asabiylashish tufayli sirni ochib qo'yish ma'nosini ifodalaydi. Bu ibora ingliz tilidagi *"to spill the beans"* ekvivalentiga yaqinroqdir.

3. ***To spill the beans*** // gullab qo'ymoq – mazkur variant *puk bermoq*ning muloqotda valdiramoq va ortiqcha narsalarni aytib qo'yish holatlarini ifodalaydi.

4. ***To fall for it*** // yolg'on yoki o'ylamasdan aytilgan gapga ishonib qolish, *puk uchmoq* – ibora biror kishining aldanishi yoki biror yolg'on gapga laqqa tushishini ifodalaydi. Bunga yaqin inglizcha iboralar sifatida *"to fall for it"* yoki *"to be taken in"* keltirilishi mumkin.

5. ***Getting duped*** // ishonib qolmoq – *puk uchmoq* iborasi uchun mos variantli substandart bo'lib, biror gapga osongina

ishonib qolish, ya'ni laqqa tushmoq ma'nosini bildiradi.

Mazkur variantlar "puk bermoq" va "puk uchmoq" iboralarining mazmunini yanada kengroq qamrab olib, tarjimada jonlilik va hissiyotni kuchaytirishga yordam beradi, degan umiddamiz.

Bundan tashqari, ko'plab badiiy asarlarda okkazional substandart leksik birikmalarni uchratishimiz mumkin, chunki muallif o'zining badiiy mahorati va so'z boyligini namoyon etish maqsadida original hamda o'ziga xos leksik elementlar yaratishga intiladi. Bu turdagi til birikmalari asarning emotsional va estetik mazmunini yanada kuchaytirib, o'quvchida chuqur taassurot qoldirishga yordam beradi. Muallif uchun bu okkazional substandart leksikadan foydalanish usuli asarning matn o'ziga xosligini yaratishda, obrazli fikrlash imkonini berishda ham ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, okkazional leksika asar muallifining stilistik va lingvistik o'ziga xosligini aks ettirishda muhim vositadir va o'quvchiga mazkur matnni esda qolarli qilib ko'rsatadi.

Substandart leksika	O'zbek tilida berilishi	"Shum bola" qissadagi kontekst ifodasi	Ingliz tiliga I.M.Toxtasinov 'tarjimasi	Izoh
Sleng	<i>Ahli lippa</i>	pul topish va to'plashga berilib ketgan shaxs	----	Pul topish va to'plashga berilib ketgan shaxslarga nisbatan qo'llanuvchi ibora.
Kollokvial leksika	<i>Puk bermoq</i>	1. Aytib qo'ymoq 2. Ishonmoq	1. To feel attitude 2. To believe	3. Qo'rqishyoki qat'iyatsizlik orqasida og'izdan gullamoq, valdiramoq, sir boy bermoq. 4. Yolg'on gapga ishonmoq, laqqa tushmoq, laqillamoq
Dialektal leksika	<i>Dakana</i>	Oltmishlardan oshgan bir xotinning boshiga o'ralgan	Shawl	Ayollar ro'moli; odatda qora yoki oq satindan tayyorlanadi va soch farqini berkitib, sochni tutib turishga xizmat qiladi. Ko'proq o'rta yoshli va keksa ayollar katta (ko'pincha oq doka) ro'mol tagidan o'raydilar. Ayrim joylar (Farg'ona vodiysi)da durra, durracha ham deyiladi.
Jargon	<i>Qor tiq</i>	Sartarosh bosh og'riqli kishilarning chakkalarini tilib, ustiga qortiq qo'yib qon olgan asbob	Khorikh	"Qor tiq" qadimgi tibbiy amaliyotlarda qo'llanilgan asbob bo'lib, odatda ho'kiz yoki sigir shoxidan yasalgan. Bu "sartarosh" uchun qo'llaniladigan jargon leksika

Argot	Takya	Hojiboboning ko'knorixonasi	The rest house, Takya	1. Turar-joy, makon, manzil. Odamlar to'planib ulfatchilik qiladigan joy 2. Bangi va ko'knorilar to'planadigan joy; ko'knorixonona
Vulgarizm	Haromi	Hojiboboning shum bolaga haqoratimiz murojaati, so'kinishi	Buster, bastard	Shunday ma'noli so'kish, haqoratni bildiradi; iflos, yaramas.
Okkazional sleng	Parrextagina bola	Mirsalimning shum bolaga achinib qo'llagan iborasi	Poor boy	Fors tilidan olingan so'z bo'lib, "pati to'kilgan" degan ma'noni anglatadi. Dastlab qushlarning mavsumiy pat to'kishi jarayonini bildirgan bu atama, insonga nisbatan qo'llanganda himoyasiz yoki yordamga muhtoj holatni ifodalaydi.
Ruscha o'zlashmalar	So'lkavoy	Bir so'mlik tanga	Sulkavay	Rus tilidan olingan baynalminal so'z - целковый. Bir so'mlik tanga bir so'mlik pul

Masalan, mashhur adabiyotshunoslardan biri Y. Lotman okkazional leksika orqali muallif o'z asarini madaniy kontekstda yangicha anglatish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'kidlaydi [Lotman 1977, 169]. Shu bilan birga, bunday leksika tahlil qilinar ekan, u asar qahramonlari nutqining jonliligini oshirishi, o'quvchiga esa yanada boy til xislatlarini kashf etishda yordam berishi bilan ham ahamiyatlidir.

A. A. Reformatskiyning izohiga ko'ra, okkazional birliklar – matnning umumiy tuzilmasi ichida paydo bo'lgan va maxsus kontekstda ma'lum bir ma'noni ifodalovchi noyob so'zlar yoki iboralar hisoblanadi [Реформатский 1967, 112]. Shuningdek, V. V. Vinogradovning asarlarida okkazionalizm ifodalari adabiy asarning stilistik rang-barangligini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlangan [Виноградов 1963, 146].

Bu ta'riflarga ko'ra, okkazional birliklar nafaqat leksik ma'noda, balki semantik va stilistik jihatdan ham asarning o'ziga xosligini ta'minlaydi, o'quvchi va yozuvchi o'rtasida aniq estetik va emotsional bog'lanishni yaratadi, deyishimiz mumkin. Asarda berilgan ana shunday okkazional substandartlardan biri *parrextagina bola* iborasidir:

– *Parrextagina bola, – dedi usta Mirsalim, – ishqilib, shu ko'zi tor sarrof ustingdan to'ningni tortib olmasa bo'lgani edi. Ko'p ziqna odam-da. Bo'lmasa, shuncha pul-a? Bitta sariq chamasi...* [G'afur

G'ulom 2018, 152].

Ushbu leksik birlik, asarda o'ziga xos nutqiy holatni va obrazni yaratishga xizmat qiladi. *"Parrextagina"* so'zi lingvistik jihatdan kollokvial leksikaga mansub bo'lib, fors tilidan olingan "pati to'kilgan" degan ma'noni aks ettiradi. So'z denotativ ma'noda parrandalarda turli mavsumlarda kechadigan tullash holatini aks ettiradi. Bu jarayonda parranda o'zini himoya qiluvchi vositalardan biri, patlaridan ayriladi va himoyasiz qoladi. Insonga nisbatan qo'llanilganda ham uning homiy-himoyasiz ekanligi nazarda tutiladi [Abdullayeva 2022, 98]. Bunday substandart leksik birliklar asar qahramonining xarakteri, ijtimoiy mavqeyi va psixologik holatini yanada teranroq tasvirlashda qo'llaniladi.

"Parrextagina bola" iborasi bilan muallif, o'quvchiga qahramonning zaifligini, jamiyatda o'zini himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmaganligini bildirmoqda. Bu esa qahramon obrazining realizm va empatiya nuqtayi nazaridan yanada jonlanishini ta'minlaydi. Mazkur ibora, shuningdek, asarda ishlatilgan okkazional substandart leksika namunasi sifatida muallifning ijodiy yondashuvini ko'rsatadi. G'afur G'ulomning bunday substandart leksikani qo'llashi asar o'quvchilarida kuchli emotsional ta'sir uyg'otishga yordam beribgina qolmay, mazkur iboraning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ingliz tiliga tarjimada *parrextagina bola* iborasi *"poor boy"* shaklida berilgan. Asl matnda "parrexta" so'zi himoyasiz, kuchsiz holatni, parranda patidan mahrum bo'lganida qanday zaif bo'lsa, xuddi shunday himoyasizlikni ifodalaydi. Bu so'z faqatgina rahmdillikni emas, balki himoyadan yiroqlik va ehtiyoj holatini aks ettiradi.

Tarjimada *"poor boy"* iborasi ishlatilgani orqali aslida faqatgina bechora holati ifodalangan, lekin o'zbek tilidagi *parrextaginaning* tasviriy ma'nosi va obrazlilik boy berilgan. Mazkur misol ko'rsatadiki, madaniy jihatdan boy va o'ziga xos substandart leksik birliklarni tarjima qilishda aynan o'sha leksik birlikning obrazli ifodasini yetkazish qiyin bo'ladi:

"Poor boy" master Salim said, "Sarrof may take back his robe" [To'xtasinov va Yo'ldoshev tarjimasi 2017, 125].

Darhaqiqat, *"parrextagina bola"* iborasi asarda *parrexta* so'zining yosh bolaga nisbatan qo'llanilishi orqali hamdardlik bilan bir oz kamsituvchi ma'noda ham ishlatilgan. Bu yerda "parrexta" asli, "ko'rimsiz, kuchsiz, himoyasiz" ma'nosini beradi, lekin fe'l birikma sifatida foydalanilganda u bolaning zaifligini

va o'jizligini ifodalaydi. Tarjimada "poor" so'zi simpatik ohang beruvchi sifatida ishlatilgan bo'lsa-da, "parrexta"ning o'ziga xos emotsional tonini to'liq aks ettirmaydi. Ushbu inglizcha variant asl ma'no qatlamini yetarlicha to'liq ifodalashga o'jizlik qiladi, chunki "parrexta"ning substandart va salbiy ohangiga mos tusni bera olmaydi. Muqobil variant sifatida, bizningcha, "poor lil' runt" (poor little runt) kabi so'zlashuvga xos variant ishlatilishi mumkin edi. "Runt" so'zi zaif yoki ahamiyatsiz kimsani anglatuvchi salbiy tusga ega bo'lib, bu "parrexta" so'zining konnotatsiyasiga yaqinroq keladi. Shuningdek, "scrawny kid" yoki "puny little guy" iboralari ham mazmunan yaqin bo'lib, bolaning kuchsizligi va himoyasizligini aks ettira oladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, badiiy diskursda substandart leksik birliklarning mavjudligi katta spektrda izchil va batafsil tahlil qilinishi, ularning muloqot jarayonidagi ahamiyati yanada kengroq ochib berilishi zarur. Xususan, substandart leksikaning funksional aspektlari va ijtimoiy ma'nodagi konnotatsiyalari badiiy asarlarning o'ziga xos uslubi va ekspressivligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kabi so'z va iboralar orqali asar qahramonlarining xarakteri, nutq xususiyatlari hamda asarning umumiy estetik qiyofasi yanada boyitiladi. Badiiy matnlarni o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishda substandart leksik birliklarning so'zma-so'z tarjima usuli har doim ham samarali bo'lmasligi mumkin, chunki bu usul mazmunni to'g'ri yetkazishda qiyinchiliklar tug'diradi.

Substandart birliklarni tarjima qilishda analog va adekvat translatologik usullar ko'proq muvaffaqiyatli bo'lib, ularning madaniy va lingvistik kontekstga mos ravishda qo'llanishi samarador hisoblanadi. Shu bilan birga, tarjima jarayonida lingvomadaniy tafovutlarni hisobga olish zarur. Sababi, har bir xalqning o'ziga xos ifoda uslublari va madaniy qirralari mavjud bo'lib, bu jihatlar tarjimada to'g'ri ifoda etilmasa, o'quvchiga to'liq yetib bormasligi mumkin. Tarjimonning kreativ yondashuvlari, lingvistik moslashuv va uslubiy transformatsiyalar kiritish orqali asl ma'no va uslubni saqlashga erishiladi. Shu bois, badiiy tarjima jarayoni faqat lingvistik emas, balki madaniy muloqot vositasi sifatida ham hal qiluvchi omil bo'la oladi. Bunday jarayonlarda tarjimon asarda qo'llangan substandart leksik birliklarning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi qadrini hisobga olib, muqobil yoki o'xshash usullardan foydalanishi, o'z navbatida, tarjimaning sifatini

oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar

- Abdullayeva, R. Y. 2022. *O'zbek tilida xarakter ifodalovchi birliklar semantikasi*. Toshkent: Poytaxt exclusive nashriyoti.
- Barthes, R. 1970. *Paris*. Editions du Seuil.
- Barthes, R. 1977. *Image-Music-Text*. New York: Hill and Wang.
- Bassnett, S. 2013. *Translation Studies*. London, New York: Routledge.
- Виноградов, В.В. 1963. *Очерки по стилистике русского языка*. Москва.
- G'afur G'ulom. 2018. *Shum bola. Qissa*. Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi.
- Phelan J. W. 2022. *Literature and Understanding. The value of a close reading of literature*. New York: Routledge.
- Lotman, Y. M. 1977. *The Structure of the Artistic Text*. USA: University of Michigan Press, 300 p.
- Tukhtasinov, I.M., Yoldoshev U.R. 2017. *A naughty boy by Gafur Gulam*. Tashkent: Yangi asr avlodi.
- Реформатский, А.А. 1967. *Введение в языковедение*. Москва: Просвещение.
- Рецкер, Я. И. 1950. "О закономерных соответствиях при переводе на родной язык". *Вопросы и методики учебного перевода: сборник статей*, 156 – 183. Москва: Издательство Академии пед. Наук РСФСР.
- Рецкер, Я. И. 2007. *Теория перевода и переводческая практика. Очерки лингвистической теории перевода. Дополнения и комментарии Д.И.Ермоловича*. Москва: Р.Валент.
- Умархўжаев, М.Э. 2010. *Умумий тилшунослик. Ўқув қўлланма*. Андижон: Жаҳон-интер-принт.
- Quronov, D. 2004. *Adabiyotshunoslikka kirish. Badiiy asar tahlili*. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати*. 2006–2008. М.Мадвалиев тахрири остида. 5 жилдли. 3-жилд. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти.
- Collins Cobuild English Language Dictionary*. William Collins Sons, Co Ltd., 1987. <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/flea-market#>
- Cambridge*. 2008. *Advanced Learner's Dictionary*. 3rd Edition. Spain: Cambridge University Press. 1820 p. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/second-hand>
- Cambridge*. 2008. *Advanced Learner's Dictionary*. 3rd Edition. Spain: Cambridge University Press. 1820 p. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/louse>

Linguoculturological study of substandard lexical units in Uzbek literature and their translation into English

Dilafroz Satimova¹

Abstract

This article investigates the linguistic and speech characteristics of substandard vocabulary in Uzbek literature, highlighting its linguistic-cultural, sociological aspects, and translation challenges. The theoretical and scientific approaches of both Western and Eastern linguists on this issue are critically analyzed. The study employs various methodologies, including comparative analysis (in the context of English and Uzbek languages), typological method (based on characterological features), descriptive method (using tables), distributive analysis (through the expression of specific substandard units in literary discourse), statistical analysis method (quantitative assessment of lexical units), and translational approach (translation techniques). The results of the study, based on examples from Gafur Gulom's novella "Shum bola" (The Rascal or Naughty boy), demonstrate the use of substandard lexical units in literary discourse and their reflection in the translation process into non-related languages, particularly in the linguistic and cultural context. In conclusion, the following key findings were reached: 1) The presence of substandard lexical units in literary discourse was thoroughly analyzed, and their importance in communication was elucidated; 2) it was determined that the literal translation method of substandard terms from Uzbek to English is not always the most effective for translators, as it may create difficulties in conveying the intended meaning; 3) the analog and adequate translation methods were found to be more successful in translating substandard units, particularly when these methods are applied in accordance with cultural and linguistic contexts, enhancing the overall effectiveness.

Key words: *literary discourse, substandard, translational, equivalent, analog, adequate, literal translation, interpretation, lexical unit, occasionalism.*

¹*Dilafroz N. Satimova* – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor; Doctoral Student (DSc) at Andijan State University.

E-mail: dilmus09@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-4640-601X

For citation: Satimova, D. N. 2024. "Linguoculturological study of substandard lexical units in Uzbek literature and their translation into English". *Uzbekistan: Language and Culture* 4: 6 – 22.

References

- Abdullayeva, R.Y. 2022. *O'zbek tilida xarakter ifodalovchi birliklar semantikasi*. Toshkent: Poytaxt exclusive nashriyoti.
- Barthes, R. 1970. *Paris*. Editions du Seuil.
- Barthes, R. 1977. *Image-Music-Text*. New York: Hill and Wang.
- Bassnett, S. 2013. *Translation Studies*. London, New York: Routledge.
- Vinogradov, V.V. 1963. *Ocherki po stilistike russkogo yazyka*. Moskva.
- G'afur G'ulom. 2018. *Shum bola. Qissa*. Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi.
- Phelan J. W. 2022. *Literature and Understanding. The value of a close reading of literature*. New York: Routledge.
- Lotman, Y. M. 1977. *The Structure of the Artistic Text*. USA: University of Michigan Press, 300 p.
- Tukhtasinov, I.M., Yoldoshev U.R.2017. *A naughty boy by Gafur Gulam*. Tashkent: Yangi asr avlodi.
- Reformatskiy, A.A. 1967. *Vvedenie v yazykovedenie*. Moskva: Prosveshenie.
- Resker, Ya.I. 1950. "O zakonamernix sootvetsviyax pri perevode na rodnoy yazik". *Voprosi i metodiki uchebnogo perevoda: sbornik statey*, 156 – 183. Moskva: Izdatelstvo Akademii ped. Nauk RSFSR.
- Resker, Ya.I. 2007. *Teoriya perevoda i perevodcheskaya praktika. Ocherki lingvisticheskoy teorii perevoda. Dopolneniya i komentarii D.I.Yermolovicha*. Moskva: R.Valent.
- Umarxo'jaev, M.E. 2010. *Umumiy tilshunoslik. O'quv qo'llanma*. Andijon: Jahon-inter-print.
- Quronov, D. 2004. *Adabiyotshunoslikka kirish. Badiiy asar tahlili*. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
- O'zbek tilining izohli lug'ati. 2006–2008*. M.Madvaliev tahriri ostida. 5 jildli. 3-jild. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.
- Collins Cobuild English Language Dictionary*. William Collins Sons, Co Ltd., 1987. <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/flea-market#>
- Cambridge*. 2008. *Advanced Learner's Dictionary*. 3rd Edition. Spain: Cambridge University Press. 1820 p. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/second-hand>
- Cambridge*. 2008. *Advanced Learner's Dictionary*. 3rd Edition. Spain: Cambridge University Press. 1820 p. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/louse>